



## CHIQINDI BILAN BOG'LIQ MUNOSABATLARNI XALQARO TARTIBGA SOLISH MASALALARI: XALQARO TALABLAR, MAJBURIYATLAR VA JAVOBGARLIK

Sharipov Nozimjon Nodirovich

Shirinov Jahongir Jasurovich

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti

"Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik"

fakulteti 3-bosqich talabalar

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda ekologiya sohasidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblangan chiqindi bilan bog'liq munosabatlarni xalqaro huquqiy tartibga solish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, chiqindi bilan bog'liq munosabatlarga nisbatan qo'yilgan xalqaro talablar, davlatlarning majburiyatlari va javobgarlik masalalari ham bevosita yoritilgan. Ushbu asosiy normalar chiqindi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turuvchi asosiy hujjat Bazel konvensiyasi qoidalari asosida tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda, ushbu maqolada davlatlar o'rtasidagi transchegaraviy tashishlar bilan bog'liq bo'lgan asosiy normalar ham batafsil keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, chiqindilar utilizatsiyasi va eksport-import qilish munosabatlarini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadigan ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlar ham tahlil qilib o'tilgan. Chiqindi bilan bog'liq munosabatlarni xalqaro huquqiy tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan asosiy masalalar Yaponiya va Xitoy davlatlari misolida o'r ganilgan. Yuqoridagilar bilan bir qatorda, chiqindi bilan bog'liq bo'lgan xalqaro huquqiy tartibga solish mexanizmini yanada rivojlantirishga qaratilgan asosiy tavsiyalar ham keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Chiqindi tushunchasi, Bazel konvensiyasi, utilizatsiya, realizatsiya, noqonuniy savdo, transchegaraviy tashishlar.

Inson hayot faoliyati uchun qulay ekologik shart-sharoit yaratish, odamlarning hayotiy manfaatlari – salomatligini ta'minlash, barqaror ekologik vaziyatni vujudga keltirish bugungi kunning xalqaro hamjamiyat oldidagi eng dolzarb vazifalaridan biridir. Buning misoli sifatida nafaqat xalqaro miqiyosda balki respublikamizda ham chiqindilar bilan bog'liq juda ko'p tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Ayniqsa, davlatimiz mustaqillikka erishgandan keyin davlat hokimiyati boshqaruв organlari tomonidan chiqindilar munosabatlarini tartibga solish va bu borada xorijiy davlatlar, tashkilotlar, uyushmalar bilan mustahkam aloqa o'rnatish, ular bilan uzviy hamkorlikni kuchaytirish masalalariga alohida ahamiyat berib kelmoqda.

Hozirgi kunda xalqaro huquqda chiqindilarni utilizatsiya qilish, qayta ishlab chiqarish va aholi salomatligiga ta'sir doirasini kamaytirish yuzasidan bir qancha xalqaro hamkorlik va chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro chiqindilardan foydalanish va ular bilan bog'liq kelib chiqadigan munosabatlarni shuningdek, nizolarni tartibga solishda Bazel konvensiyasi barcha a'zo





davlatlar uchun imperative norma vazifasini bajaradi. Ushbu konvensiya yaratilish tarixiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, 1970 – 1980 – yillarda davlatlar hududidan chiqadigan chiqindilarni utilizatsiya qilish va ularni tashish natijasida kelib chiqadigan munosabatlar aniq bir hujjat bilan tartibga solinmagan. Buning misoli sifatida, 1986 – yil, 31 – avgustda Amerika Qo'shma Shtatlarining Pensilvaniya shtatining Filadelfiya shahridan olib ketilayotgan yondiriladigan chiqindilarning ko'chirilishi boshqa hududlar tomonidan rad etilishi misolida ko'rishimiz mumkin.

Mazkur konvensiyaning asosiy maqsadi shundaki, bu xalqaro darajada inson salomatligi va atrof-muhitni xavfli chiqindilarni ishlab chiqarish, ulardan foydalanish, transchegaraviy tashish va yo'q qilish natijasida kelib chiqadigan zararli tasirlardan himoyalanish maqsadida qabul qilingan.

Bazel Konvensiyasida keltirilgan qoidalar va me'yorlarini tahlil qilib o'tsak,

Chiqindilar – bu utilizatsiya qilinadigan yoki utilizatsiya qilinishi kerak bo'lgan moddalar yoki obyektlar hisoblanadi. Chiqindilardan foydalanish xavfli va boshqa chiqindilarni yig'ish, tashish va yo'q qilishni, shu jumladan olib tashlash joylarini keyingi nazorat qilishni anglatadi. Transchegaraviy transport xavfli yoki boshqa chiqindilarni bir davlatning milliy yurisdiktsiyasidagi hududdan boshqa davlatning milliy yurisdiktsiyasidagi tumaniga yoki biron bir davlatning milliy yurisdiktsiyasiga kirmaydigan tumanga yoxud tumaniga ko'chirish kamida ikkita davlat orqali amalgalash oshirilishi hisoblanadi. Konvensiyaga muvofiq navbatdagi me'yoriy qoida hisoblanmish ruxsat etilgan joylar yoki ob'ektlar xavfli yoki boshqa chiqindilarni olib tashlash uchun mo'ljalangan joylar yoki ob'ektlarga kiritilishi, shuningdek ularga nisbatan bunday joylar yoki ob'ektlar joylashgan davlatning tegishli organidan ruxsat yoki litsenziya olish talab etiladi. Geografik hududlar ichida javobgar bo'lish uchun tayinlangan davlat organi ya'ni Vakolatli organ, xavfli yoki boshqa chiqindilarni transchegaraviy tashish to'g'risida xabar olish va u bilan bog'liq har qanday ma'lumot va konvensiya normalariga muvofiq bunday xabarnomaga javob berish tegishli vakolatli organlarning zimmasida hisoblanadi.

Noqonuniy savdo 9-moddaga muvofiq xavfli yoki boshqa chiqindilarni har qanday transchegaraviy tashishni anglatadi.<sup>58</sup> Mazkur konvensiyaning maqsadlari uchun xavfli yoki boshqa chiqindilarni har qanday transchegaraviy tashish qoidalariga muvofiq barcha manfaatdor davlatlarni xabardor qilmasdan, manfaatdor davlatning rozilgisiz, shuningdek manfaatdor davlatlardan qalbakilashtirish, yo'lidan ozdirish yoki aldash yo'li bilan olingan rozilik orqali amalgalash oshirilishi, hujatlarga sezilarli darajada mos kelmaydigan talablar kiritilganligi va bundan tashqari Konvensiya va xalqaro huquqning umumiy tamoyillarini buzgan holda xavfli yoki boshqa chiqindilarni qasddan olib tashlashga (masalan, tashlab yuborishga) olib keladi. Bu albatta noqonuniy savdo hisoblanadi.

Import qiluvchi yoki olib tashlash uchun mas'ul bo'lgan shaxsning xatti-harakatlari asosida noqonuniy savdo deb tasniflangan xavfli yoki boshqa chiqindilarni

<sup>58</sup> <https://lex.uz/docs/-2756852?otherlang=1>



transchegaraviy tashish holatida, import qiluvchi davlat ushbu chiqindilarni import qiluvchi yoki olib tashlash uchun mas'ul shaxs tomonidan ekologik jihatdan asosli ravishda olib tashlanishini yoki agar kerak bo'lsa, import qiluvchi davlatning o'zi *30 kun ichida olib tashlanishini ta'minlaydi*. Shu maqsadda, manfaatdor tomonlar, kerak bo'lganda, chiqindilarni ekologik jihatdan oqilona olib tashlash bo'yicha hamkorlik qiladilar.

Bundan tashqari ushbu konvensiyaning tamoyillari xalqaro chiqindilarni ishlab chiqarish, ularni tartibga solish va tashishda xalqaro subyektlar hisoblangan eksportchi va importchi davlatlar o'rtasida muhim omil sanaladi. Shu munosabat bilan quyidagi tamoyillarga to'xtalib o'tamiz:

- Yaqinlik tamoyili;
- Oldindan xabardor qilish tamoyili;
- O'zini o'zi ta'minlash tamoyili;

Endi yuqorida ta'kidlab o'tilgan tamoyillarning mazmuniga alohida yondashib o'tishimiz lozim.

*Yaqinlik tamoyili – bu shuni anglatadiki, eksportchi va import qiladigan davlatlar orasidagi chiqindilarni ishlab chiqarish, foydalanish va ularni tashish munosabatlarida eng yaqin hududni tanlash asosiy norma hisoblanadi.*

*Navbatdagi muhim tamoyillardan biri oldindan xabardor qilish tamoyili – bu shu sohada chiqindilarni eksport qiluvchi davlat tomonidan import qilinadigan davlatning tegishli organlarini xabardor qilish tushuniladi.*

*O'zini o'zi ta'minlash tamoyili – bu xalqaro chiqindilarni tartibga solishda Bazel konvensiyasiga a'zo har bir davlat yurisdiksiyasining milliy qonunchiligi asosida tartibga solinishi tushuniladi.<sup>59</sup>*

Keyingi masalaga to'xtaladigan bo'lsak, xalqaro miqiyosda chiqindilarni ishlab chiqish, utilizatsiya, eksport-importini hamda ularni tartibga solishda Bazel konvensiyasining subyektlar o'rtasida amal qilish doirasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Transchegaraviy tashish ob'ekti bo'lgan xavfli chiqindilar Bazel Konvensiyasining ilovasida ko'rsatilgan har qanday toifadagi chiqindilar, agar ular III ilovada keltirilgan xususiyatlarga ega bo'lmasa, lekin eksport, import yoki tranzit davlatining ichki qonunchiligiga muvofiq aniqlangan yoki xavfli deb topilgan chiqindilar sirasiga kiradi. Transchegaraviy tashishga duchor bo'lgan II ilovasida ko'rsatilgan har qanday toifaga kiritilgan chiqindilar boshqa chiqindilar toifasiga kiradi. Boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlar bilan qoplanadigan dengiz kemalarining normal ishlashi natijasida yuzaga keladigan chiqindilar mazkur Konvensiya doirasidan chiqarib tashlanadi.<sup>60</sup>

Bazel konvensiyasining yana bir muhim tomonlaridan biri bu taraflar o'rtasida transchegaraviy tashish transporti hisoblanadi. Bu norma 6-moddada belgilangan. Va unda aytilganidek, eksport davlati ishlab chiqaruvchidan yoki eksport qiluvchidan

<sup>59</sup> <http://www.basel.int>

<sup>60</sup> <https://lex.uz/docs/-2756852?otherlang=1>





xavfli yoki boshqa chiqindilarni transchegaraviy tashish to'g'risida manfaatdor davlatlarning vakolatli organlarini eksport qiluvchi davlatning vakolatli organi orqali yozma ravishda xabardor qilishni talab qiladi. Bunday bildirishnomalarda va ilovasida keltirilgan bayonotlar va ma'lumotlar import davlati uchun maqbul bo'lgan tilda bo'lishi kerak. Har bir manfaatdor davlatga bitta xabarnoma yuborish kifoya qilinadi. Import qiluvchi davlat xabar beruvchiga xabarnomani olganligi to'g'risida yozma ravishda javob yuboradi, unda ma'lum sharoitlarda yoki shartlarsiz transportga rozilik, transport ruxsatnomasini rad etish yoki qo'shimcha ma'lumot taqdim etish talabi mavjud bo'ladi. Yakuniy javobning nusxasi import davlatiga tomonlar bo'lgan manfaatdor davlatlarning vakolatli organlariga yuboriladi.

Hozirgi kunda chiqindilar utilizatsiyasi va eksport-import qilish munosabatlarini tartibga solishda ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlarning roli katta. Buning asosiy normasi sifatida, Bazel konvensiyasi tayanch nuqta hisoblanadi. Unga ko'ra, Tomonlar xavfli va boshqa chiqindilardan ekologik jihatdan oqilona foydalanishni yaxshilash va ularga erishish uchun o'zaro hamkorlik qilmoqdalar. Tomonlar so'rov kelib tushganda, xavfli va boshqa chiqindilardan ekologik jihatdan oqilona foydalanishga ko'maklashish, shu jumladan xavfli va boshqa chiqindilardan to'g'ri foydalanishning texnik normalari va amaliyotini birlashtirish istagidan kelib chiqqan holda, ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama asosda mavjud ma'lumotlarni taqdim etadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, tomonlar va vakolatli xalqaro tashkilotlar o'rtasida "Inter alia" ni jamoatchilik tomonidan ushbu muammo to'g'risida xabardorligini oshirish, xavfli va boshqa chiqindilardan ekologik jihatdan oqilona foydalanishni kengaytirish va yangi kam chiqindi texnologiyalarni joriy etish maqsadida hamkorlik qilish rag'batlantirilmoqda.

Ma'lumki, mazkur soxada munosabatlarga kiruvchi taraflar o'rtasida mukammal shartlar asosida tuzilmagan shartnomaga kelishilgan taqdirda nizolar kelib chiqishi tabiiy holdir. Shu boisdan konvensiyaning 20-moddasida Nizolarni hal qilish tartibi belgilangan. O'z navbatida tomonlar o'rtasida ushbu Konvensiyani yoki unga tegishli har qanday protokolni talqin qilish, qo'llash yoki unga rioya qilish bo'yicha nizo yuzaga kelgan taqdirda, ular nizoni muzokaralar yo'li bilan yoki o'zlari tanlagan boshqa tinch yo'l bilan hal qilishga intilishadi. Agarda manfaatdor tomonlar nizoni avvalgi bandda ko'rsatilgan tarzda hal qila olmasalar, o'zaro kelishuv nizosi hakamlik sudining VI ilovasida belgilangan shartlarga muvofiq xalqaro sudga yoki hakamlik sudiga yuboriladi. Nizoni xalqaro sudga yoki arbitrajga topshirish bo'yicha o'zaro kelishuvga erishishning iloji yo'qligi, tomonlarni 1-bandda ko'rsatilgan tarzda hal qilish yo'llarini izlashni davom ettirish majburiyatidan xalos qilmaydi. Konvensiyani ratifikatsiya qilish, qabul qilish, tasdiqlash, rasmiy tasdiqlash yoki unga qo'shilish paytida yoki undan keyin istalgan vaqtida har qanday davlat yoki siyosiy yoki iqtisodiy integratsiya tashkiloti "ipso facto" ni majburiy deb tan olishini va shu kabi majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan har qanday tomon uchun maxsus kelishuvsiz e'lon qilishi mumkin.





Nizoni xalqaro sudga berish yo'li orqali va nizoni v ilovada belgilangan tartib-qoidalarga muvofiq hakamlik sudiga o'tkazish yo'li bilan nizolar hal etiladi.

Umumiy majburiyatlarga to'xtaladigan bo'lsak, tomonlar xavfli chiqindilarni yoki boshqa chiqindilarni utilizatsiya qilish maqsadida olib kirishni taqiqlash huquqidan foydalangan holda, qabul qilgan qarorlari haqida xabardor qiladilar. Xavfli chiqindilar va boshqa chiqindilarni olib kirishni taqiqlamagan import qiluvchi davlatlar uchun, agar import qiluvchi davlat ma'lum bir importga yozma ravishda rozi bo'lmasa, tomonlar xavfli chiqindilar va boshqa chiqindilarni eksport qilishni taqiqlaydi yoki ruxsat bermaydi. Shu bilan birgalikda xavfli chiqindilar va boshqa chiqindilarning transchegaraviy olib o'tishlari minimallashtirilishini, bunday chiqindilardan ekologik jihatdan sog'lom va samarali foydalanishga mos kelishini va inson salomatligi va atrof-muhitni bunday tashishning salbiy ta'siridan himoya qiladigan tarzda amalga oshirilishini ta'minlashga olib kelishi mumkin. Xavfli chiqindilarni va boshqa chiqindilardan ekologik xavfsiz foydalanilmaydi deb hisoblash uchun asoslar mavjud bo'lsa, olib kirilishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

Ba'zi rivojlangan davlatlarning tajribasi chiqindilarning 85 foizini qayta ishslash mumkin ekanini ma'lum qilmoqda. Masalan, Yaponiyada rezina hamda kabel buyumlarning 34 foizi, shisha buyumlarning 43, qog'oz va kartonning 54 foizi chiqindilarni qayta ishslash evaziga olinar ekan.

Xitoyliklar esa alyuminiy, temir, mis kabi metallardan yasalgan buyumlarning 33 foizini, jun, ipak, charm-attorlik buyumlarining 34 foizini turli chiqindilarni qayta ishslash hisobiga oladi.<sup>61</sup>

Yaponiya va boshqa qator rivojlangan davlatlar chiqindilarni yo'q qilish va qayta ishslash bo'yicha uzoq yillik tajribaga ega.

Yaponiyada ekologiya tizimi samaradorligining asosiy sabablaridan biri sifatida shu sohaga oid qonunlarning mukammalligi, jumladan, chiqindi va atrof-muhit to'g'risidagi asosiy qonunlardan tashqari, qayta ishlab chiqishga mo'ljallangan har bir chiqindi uchun alohida maxsus qonun hujjatlari ishlab chiqilganligini ta'kidlash mumkin.

Masalan, bugungi kunda Yaponiyada velosipedni, plastik chiqindilarni qayta ishlab chiqarish yoki elektron chiqindilarni qayta ishslashga oid alohida qonun hujjatlari mavjud.

Yaponiyaning "Chiqindilarni yo'q qilish to'g'risida"gi qonuning asosiy maqsadi chiqindilarni to'g'ri taqsimlash, saqlash, yig'ish, tashish, qayta ishslash va yo'q qilish, shuningdek, yashash muhitini toza saqlash orqali yashash muhitini yaxshilashga qaratilgan.<sup>62</sup>

Ushbu qonunda chiqindilarning har bir turiga, masalan, ishlab chiqarish chiqindilari, maxsus nazorat qilinadigan sanoat chiqindilari kabi alohida ta'riflar berilgan. Xususan hukumat qarorida "ko'rsatilgan portlovchi, zaharli, yuqumli yoki

<sup>61</sup> [https://uz.uz/uz/posts/ozbekistonda-chiqindi-muammosi-va-yaponiya-tazhibasi\\_424890](https://uz.uz/uz/posts/ozbekistonda-chiqindi-muammosi-va-yaponiya-tazhibasi_424890)

<sup>62</sup> <https://srcyrl.lasticsrecycling.com/news/japan-27575808.html>





boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan, inson salomatligi yoki yashash muhitiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan qattiq maishiy chiqindilar, maxsus nazorat qilinadigan qattiq maishiy chiqindilar toifasiga kirishi" alohida ta'kidlab o'tilgan. Mazkur qonunning 2-moddasida Yaponiyada hosil bo'ladigan chiqindilar imkon qadar mamlakat hududida to'g'ridan-to'g'ri yo'q qilinishi kerak, degan qoida o'rnatilgan. Shuningdek, ushbu qonun keyingi qonunosti hujjatlar uchun asosiy baza sifatida xizmat qiladi.<sup>63</sup>

Yaponiyada chiqindilarni to'g'ridan-to'g'ri yo'q qilish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash masalasida tegishli davlat organlarining mahalliy hokimiyatlar, xususiy korxonalar va aholi bilan hamkorligi yo'lga qo'yilgan.


Ayrim davlatlarda chiqindilarni alohida yig'ish tizimi ham yo'lga qo'yilgan. Natijada qog'oz, plastik, alyuminiy kabi xomashyoning katta qismi qayta ishslashga yuboriladi. Bu jarayonning ekonomihitga ijobiy ta'siri katta bo'lib, energiya va xomashyoni sezilarli darajada tejaydi.

Bizning mamlakatimizda esa, maishiy chiqindilarni to'plash, joylashtirish, tashish, zararsizlantirish, saqlash, qayta ishslash, utilizatsiya va realizatsiya qilishning samarali tizimini tashkil etish yuzasidan qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan. Biz axlatni toifalarga ajratsak, ularni yig'ish va shu tariqa qayta ishslash oson bo'ladi. Biz axlatni bosqichma-bosqich saralash, yonadigan va yonmaydigan axlatlarni turli qoplarga yig'ish orqali boshlashimiz mumkin. Bu harakat, albatta, plastik ifloslanishdan xoli yanada toza muhitga olib keladi. Albatta saralash jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishingiz mumkin, chunki biz O'zbekistonda axlat saralashga odatlanmaganmiz. Lekin biz axlatni toifalarga ajratishga o'rganib qolganimiz va yorug' kelajakka hissa qo'shayotganim, O'zbekistonda hammamiz ham mamlakatimiz uchun o'z hissamizni qo'shishimiz mumkinlikini isbotidir.

To'g'ri, infratuzilma mavjud bo'lishi kerak bo'lsa-da, fuqarolarning ishtiroki axlatni qayta ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yaxshilanadi. Davlat xizmatlari, xususan, "Maxsustrans" chiqindilari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risida"gi qonunda chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish munosabatlari tartibga solinadi. Shuningdek, qonunda chiqindilarning fuqarolar hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga zararli ta'sirining oldini olish, chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish va ulardan xo'jalik faoliyatida oqilona foydalanishini ta'minlash to'g'risida gapirib o'tiladi. Bundan tashqari mamlakatimiz og'ir sanoatida tog'-kon metallurgiya xodimlari va ishchilari uchun maxsus kiyimlar tegishli hujjatlar asosida ekspluatatsiyaga topshiriladi va tashkilotda belgilangan ichki yo'riqnomalar asosida utilizatsiya qilinadi.<sup>64</sup> Buning boshqa chiqindilardan ahamiyatli jihat shundaki, uran va oltin kon zavodlarida foydalanilgan mahsus kiyimlar yondirilmaydi. Ularga nisbatan maxsus chuqurliklarga ko'mish chora tadbirlari ko'rildi.

<sup>63</sup> <https://www.tofugu.com/japan/garbage-in-japan/>

<sup>64</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-42423>





Xulosa. Yuqoridagi keltirib o'tilgan ma'lumotlarni inobatga olgan holda, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, chiqindilarni ishlab chiqarish va utilizatsiya qilish hamda ularning eksport-importini tartibga solish muhim vazifa hisoblanadi. Chunki Bazel konvensiyasining maqsadlarida belgilanganidek, odamlarning hayotiy manfaatlari – salomatligini ta'minlash, barqaror ekologik vaziyatni vujudga keltirish bugungi kunning xalqaro hamjamiyat oldidagi eng dolzarb vazifalaridan biridir. Chiqindilarni qayta ishlashni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bu nafaqat chiqindilardan xalos bo'lish balki mamlakatlarning ekologik muhitiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga mamlakatlarning iqtisodiy mavqeyiga ham katta hissa qo'shami! Buning yaqqol misoli o'laroq Shvetsiya davlati o'z mamlakatining chiqindilarini qayta ishlash barobarida qo'shni davlat bo'lgan Norvegiyadan har yili katta miqdorda chiqindi sotib oladi va ularni qayta ishlaydi.

Keling, chiqindini ajratish borasidagi ishlarni ommaga tarqataylik va jamiyat sifatida amalga oshirishimiz mumkin bo'lgan ushbu harakat haqida xabardorlikni oshiraylik! Birgalikda biz, albatta, chiqindilarini qayta ishlash va undan foydalanishni qisqartirish maqsadiga erisha olamiz!

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. <https://lex.uz/docs/-2756852?otherlang=1>
2. <http://www.basel.int>
3. [https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-chiqindi-muammosi-va-yaponiya-tazhibasi\\_424890](https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-chiqindi-muammosi-va-yaponiya-tazhibasi_424890)
4. <https://srcyrl.lasticsrecycling.com/news/japan-27575808.html>
5. <https://www.tofugu.com/japan/garbage-in-japan/>
6. <https://lex.uz/ru/docs/-42423>

